
BUGUN YUQORI QISHLOQ MFYDA KONTEYNERDA JIHOZLANGAN MAHALLA TIBBIYOT PUNKTI ISH BOSHLADI

Toshloq tumanidagi olis va chekka hududlar aholisi uchun birlamchi tibbiy yordamning sifat va samaradorligini oshirish hamda tibbiy xizmat ko'lamini kengaytirish maqsadida konteynerlarda maxsus jihozlangan mahalla tibbiyot punktlari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda.

Bugun yangi faoliyatini boshlagan tibbiyot punktida aholi uchun umumiy amaliyot shifokori, patronaj hamshiralari faoliyat ko'rsatadi. Hududga biriktirilgan hamshira uyma-uy yurib, aholi salomatligini muntazam ravishda nazorat qiladi. Uning tavsiyasi asosida shifokor bevosita tegishli xonadonga borib, tibbiy muolajalar o'tkazadi, ehtiyoj bo'lsa, shifoxonaga yotish uchun yo'llanma beradi.

Toshloq tumani hokimligi axborot xizmati.

2022-08-13 16:51:57